AN’ANAVIY JAMIYATIDA NOGIRON SHAXSLARNING IJTIMOIY MAQOMI: MAHALLA, OILA VA VAQF TIZIMI KONTEKSTIDA

Tukhtayev Nurulla Sunnatilla o‘g‘li
Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti Doktorant
https://doi.org/10.5281/zenodo.22943755

Annotatsiya. Ushbu maqola an’anaviy O‘zbek jamiyatida nogiron shaxslarning ijtimoiy maqomini mahalla, oila va vaqf institutlari doirasida 1865–1917 va 1991 yillar tarixiy kesimlarida kontseptual jihatdan tahlil qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy jamiyatda ijtimoiy himoya davlat tizimiga emas, diniy-axloqiy tamoyillarga asoslangan an’anaviy institutlar tarmog‘iga tayanib kelgan. Rossiya mustamlakachiligi va sovet davri bu tizimni bosqichma-bosqich kuchsizlantirgan. Maqola zamonaviy ijtimoiy-pedagogik siyosat uchun amaliy xulosalar taklif etadi.
Kalit so‘zlar: nogironlik tarixi, an’anaviy jamiyat, mahalla, vaqf, oila tuzilmasi, ijtimoiy himoya, Turkiston, Rossiya mustamlakachiligi, ijtimoiy-pedagogik siyosat

Kirish. Nogironlik tarixi ijtimoiy tarix va pedagogika fanlarining kesishmasida joylashgan, ammo O‘rta Osiyo ilmiy diskursida hali yetarlicha tadqiq etilmagan sohadir. Global miqyosda disability studies (nogironlik tadqiqotlari) XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, ijtimoiy model asosida rivojlandi: ushbu modelga ko‘ra, nogironlik faqat tibbiy holat emas, balki jamiyatning tuzilishi va munosabati bilan belgilanadigan ijtimoiy konstruktdir (Stiker, 1999; World Health Organization [WHO], 2011). Biroq bu nazariy yutuqlar ko‘proq G‘arb akademik an’anasiga tayanganligidan, an’anaviy musulmon jamiyatlarida nogironlik tajribasini tahlil qilishda metodologik va kontseptual cheklovlar yuzaga keladi.

Markaziy Osiyo xususan, bugungi O‘zbekiston hududidagi jamiyatlar uchun mahalla, oila va vaqf kabi an’anaviy institutlar tarixan davlat himoyasi tizimining markaziy unsurlarini tashkil etib kelgan (Lapidus, 2002; McChesney, 1991). Bu institutlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga, jumladan, nogiron shaxslarga nisbatan munosabatdagi roli va funksiyasini tarixiy jihatdan o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-pedagogik siyosat uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Afsuski, O‘rta Osiyo tarixshunosligida ushbu masala maxsus tadqiqot obyektiga aylangani sanoqli bo‘lib, ko‘pchilik mavjud ishlar nogironlikni mustaqil tahlil qilinuvchi kategori sifatida emas, balki kambag‘allik yoki ijtimoiy zaiflik mavzularining bir qismi sifatida ko‘rib o‘tadi (Brower, 2003; Khalid, 1998).

Ushbu maqola ikki tarixiy kesimni qamrab oladi. Birinchi kesim 1865-1917 yillar, ya’ni Rossiya imperiyasi qo‘shinlarining Toshkentni zabt etishidan (1865) to imperiyaning inqiroziga qadar bo‘lgan davr. Bu davrda Turkiston general-gubernatorligi tuzilishi mahalliy an’anaviy institutlarning huquqiy va iqtisodiy asoslariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi: vaqf mulklarini ro‘yxatdan o‘tkazish va nazorat qilish tartibining o‘zgaishi, mahalliy aholini boshqarishda mahalla tizimining qisman saqlanishi, shu bilan birga imperik boshqaruv tizimining joriy etilishi bular barchasi an’anaviy ijtimoiy himoya mexanizmlarining transformatsiyasini belgilab berdi (Crews, 2006; Sahadeo, 2007).

Ikkinchi kesim 1991 yil O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini e’lon qilishi va an’anaviy institutlarning qonuniy-siyosiy jihatdan qayta tiklanishining boshlanishi davri sifatida belgilanadi. Bu yilda mahalla tizimiga davlat tomonidan huquqiy maqom berilishi, ijtimoiy himoya sohasidagi milliy qonunchilik bazasining shakllanishi jarayoni boshlanganligi ushbu sanani muhim tarixiy darchadir sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi (Luong, 2002). Ikki kesim o‘rtasida sovet davri (1917–1991) mavjud bo‘lib, ushbu davrda an’anaviy

institutlar rasman tugatilgan, biroq norasmiy ijtimoiy amaliyot sifatida saqlanib qolgan. Shu sababli ushbu maqolada sovet davri o‘tish konteksti sifatida tasvirlanadi va asosiy qiyosiy tahlil yuqorida ko‘rsatilgan ikki kesim o‘rtasida amalga oshiriladi.

Asosiy tushunchalarning kontseptual tahlili. Nogironlik tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotda tibbiy model va ijtimoiy model nuqtai nazaridan turlicha ta’riflanadi. Tibbiy model nogironlikni individual biologik nuqson sifatida ko‘rsa, ijtimoiy model uni jamiyatning muhit, munosabat va tuzilmasidan kelib chiquvchi konstrukt sifatida talqin qiladi (WHO, 2011). Tarixiy kontekstda esa xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi musulmon jamiyatlarida nogironlikni belgilovchi kategoriyalar zamonaviy tasniflash tizimlaridan farq qilgan: shariat terminologiyasida “ojiz” (ojiz, zaif), “ma’yub” (nuqsonli) yoki “mazlum” (zulm ko‘rgan, himoyaga muhtoj) atamalarining ishlatilishi ijtimoiy munosabatlarning diniy-axloqiy asosda shakllanganligidan dalolat beradi (Lapidus, 2002). Ushbu maqolada “nogiron shaxslar” deganda jismoniy, sensor yoki intellektual jihatdan doimiy cheklovlarga ega bo‘lgan va ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar nazarda tutiladi. An’anaviy jamiyat tushunchasi Markaziy Osiyo kontekstida oila, mahalla va din asosida tashkil topgan, davlat boshqaruvidan ko‘ra an’anaviy me’yorlar va norasmiy institutlar orqali ijtimoiy tartibni ta’minlovchi tuzilmani bildiradi (Khalid, 1998). Ushbu jamiyatlarda ijtimoiy himoya mexanizmlari davlat byurokratiyasiga emas, balki qarindoshlik tarmoqlari, qo‘shnichilik munosabatlari va diniy-xayriya institutlariga tayanib faoliyat yuritgan.

Vaqf (arabcha: vaqf “to‘xtatilgan, bag‘ishlangan mulk”) - islom huquqida mulkni diniy yoki ijtimoiy maqsadlar uchun doimiy ravishda bag‘ishlash instituti bo‘lib, O‘rta Osiyoda shifoxonalar, maktablar, kambag‘allar uchun boshpanalar va beva-bechoralarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari vaqf mulklari orqali moliyalashtirilgan (McChesney, 1991). Rossiya mustamlakachiligi davrida vaqf tizimining kengayishi cheklanib, uni tartibga solish imperiya ma’muriyatiga o‘tkazilishi an’anaviy ijtimoiy ta’minot tizimining moliyaviy asoslariga katta zarba berdi (Crews, 2006).

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi an’anaviy O‘zbek jamiyatida mahalla, oila va vaqf tizimining nogiron shaxslar uchun ijtimoiy ta’minot va himoya mexanizmi sifatidagi rolini 1865-1917 va 1991 yillar tarixiy kesimlarida kontseptual jihatdan tahlil qilish va ushbu tahlil asosida zamonaviy ijtimoiy-pedagogik siyosat uchun amaliy xulosalar shakllantirish.

Metodologiya. Ushbu maqola empirik ma’lumotlar yig‘ishga asoslanmagan ilmiy-amaliy kontseptual maqola formatida yozilgan bo‘lib, qo‘llaniladigan metodlar nazariy va tarixiy-tahliliy xarakter kasb etadi. Tarixiy-qiyosiy tahlil metodi ikki aniq tarixiy kesim 1865-1917 va 1991 yillar o‘rtasidagi ijtimoiy institutlarning transformatsiyasini solishtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu metod o‘xshash yoki farqli sharoitlarda bir xil ijtimoiy hodisaning turlicha ko‘rinishlarini aniqlash, institutsional o‘zgarishlar va davomiylik chizig‘ini kuzatish imkonini beradi. Mustamlaka davrida an’anaviy institutlarning qisman saqlanishi va sovet davridan keyingi qayta tiklanish jarayoni aynan shu metod orqali kontseptual jihatdan tahlil qilinadi. Mahalla, oila va vaqf tushunchalari mavjud tarixiy va ijtimoiologik adabiyotlar asosida funksional model nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv uchala institutning nogironlarga nisbatan ijtimoiy himoya funksiyasini bir-biridan ajratgan holda, shu bilan birga ularning o‘zaro aloqadorligini saqlab, tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar. XIX asr oxiri Markaziy Osiyo jamiyatida oila tuzilmasi ko‘p avlodli va patriarxal xarakter kasb etgan bo‘lib, odatda bir xonadon doirasida uch avlod bobolar, ota-onalar va nevaralar birga yashagan. Bunday tuzilma ichida jismoniy yoki aqliy jihatdan cheklangan shaxs oila mulkidan foydalanish, ovqatlanish va boshpana masalalarida to‘liq oilaviy tizimga integratsiyalashgan holda qolgan (Kamp, 2008). Muhtoj a’zoni oiladan

ajratish yoki ixtisoslashtirilgan muassasaga topshirish madaniy-diniy jihatdan qoralanuvchi amaliyot sifatida qaralgan, chunki bunday qadam oila sha'ni va diniy burchga xiyonat deb talqin etilgan. Islom aqidasida himoyaga muhtoj shaxsga yordam ko'rsatish sadaqa, nafaqa va g'amxo'rlik diniy majburiyat sifatida belgilanib, ushbu majburiyat avvalo qarindosh-urug'lar zimmasiga yuklatilgan (Lapidus, 2002). Fiqh adabiyotida "nafaqa" tushunchasi ya'ni yaqin qarindoshlarning moddiy ta'minoti to'g'ridan to'g'ri tartibga solingan: er xotin va farzandlarga, o'g'il ota-onaga, aka-uka bir-biriga nafaqa to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan. Bu majburiyat to'liq mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki tug'ma nuqsoni bor shaxslarga nisbatan ayniqsa qat'iy tartibda amal qilgan (Lapidus, 2002; Coulson, 1964).

Mustamlaka davrida oilaviy tuzilmaning o'zgarishi (1865–1917). Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi oilaviy tuzilmaga bevosita ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa-da, mustamlaka iqtisodiyotining joriy etilishi paxta yakkahokimligi, soliq siyosatining o'zgarishi, shahar va qishloq o'rtasidagi migratsiyaning kuchayishi ko'p avlodli oila tuzilmasini bosqichma-bosqich zaiflashtirib bordi (Sahadeo, 2007). Paxta iqtisodiyotiga o'tish jarayonida erkaklarning mavsumiy ishchi sifatida uzoq hududlarga ketishi, shu bilan birga yer-mulk munosabatlarining o'zgarishi yirik oila tarkibining parchalanishiga zamin hozirladi. Northrop (2004) ta'kidlaganidek, mustamlaka davri o'zbek oilasidagi iqtisodiy siqilish ayol va bolalarga hamda nogiron a'zolarga yo'naltirilgan ichki resurslarning kamayishida ham o'z aksini topdi. Shu bilan birga, imperiya ma'muriyati mahalliy oilaviy munosabatlarni to'g'ridan to'g'ri tartibga solishga urinmagan; shariat sudlari (qozi mahkamalari) 1886 yilgi Turkiston nizomiga ko'ra chegaralangan vakolatlar doirasida saqlanib qolgan, bu esa oilaviy nafaqa va meros masalalarida an'anaviy normalarning yuridik kuchini muayyan darajada saqlashga imkon bergan (Crews, 2006).

Mahallaning an'anaviy ijtimoiy funktsiyalari. O'rta Osiyodagi mahalla bu oddiy ma'muriy birlik emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning markaziy institutsidir. Mahalla o'z a'zolarining tug'ilishidan to vafotiga qadar barcha muhim hayotiy bosqichlarida ishtirok etgan: nikoh marosimlari, janoza, kasallik va moddiy tanglik davrida qo'shnilik yordami tizimi "hashar" va "gap" madaniyati doirasida amaliy ko'mak ko'rsatilgan (Sievers, 2002). Bu yerda diqqatga sazovor jihat shundaki, mahallaning ijtimoiy himoya funksiyasi rasmiy tartibga solinmagan, balki norasmiy ijtimoiy nazorat va axloqiy majburiyat orqali amalga oshirilgan.

Nogiron shaxslarga nisbatan mahalla darajasida ikki turdagi yondashuv kuzatilgan. Birinchidan, mehnat qobiliyatini yo'qotgan a'zolar mahalla tomonidan uyushtirilgan kollektiv yordam oziq-ovqat, kiyim-kechak, mavsumiy yoqilg'i taqsimlashdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ikkinchidan, jismoniy cheklovi bo'lgan ammo faoliyat ko'rsata oladigan shaxslar mahalla hayotiga o'z qobiliyatlari doirasida jalb etilgan hunarmandchilik, savdo, diniy marosimlarning muayyan qismlari bunday shaxslar tomonidan ham amalga oshirilgan (Khalid, 1998).

1867-yilda tuzilgan Turkiston general-gubernatorligi mahalliy boshqaruv tizimini to'liq bekor qilmadi, balki uni imperiya ma'muriy ierarxiyasiga integratsiyalash yo'lini tutdi. 1886 yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi nizomga ko'ra, mahalla oqsoqoli "mahalla boshi" rasman imperiya ma'muriyatining quyi bo'g'ini sifatida tan olindi (Sahadeo, 2007). Bu qaror mahallaning an'anaviy ijtimoiy funktsiyalarini rasmiy ma'muriy vazifalarga aylantirmadi, balki ikki tizimning parallel faoliyatiga imperiya boshqaruvi va mahalliy an'anaviy tuzilma zamin hozirladi. Biroq mustamlaka davrida mahallaning iqtisodiy asosi sezilari darajada kuchsizlangan. Shahar aholisining o'sishi, yangi "Rus shaharlar"ining qurilishi va shaharsozlik o'zgarishlari mahalla chegaralarini siqib qo'ygan, o'zaro yordam uchun ajratilgan resurslar esa soliq yukining oshishi bilan birga kamayib borgan (Brower, 2003). Shunday bo'lsa-da, mahalla mustamlaka davri oxirigacha asosiy ijtimoiy birlik sifatida saqlanib qoldi va nogiron shaxslar uchun birinchi darajali ijtimoiy tarmoq bo'lib xizmat

qilishda davom etdi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng 1993 yilda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, mahallaga rasmiy huquqiy maqom berildi (Luong, 2002). Bu qaror mahallani nafaqat an’anaviy ijtimoiy birlik, balki davlat boshqaruvining quyi bo‘g‘ini sifatida belgilab, unga ijtimoiy yordam, mohtoj fuqarolarni ro‘yxatga olish va nafaqalar taqsimlash vazifalari yuklatildi. Sievers (2002) ta’kidlaganidek, 1990-yillar davomida mahalla tizimi sovet davrida yo‘qolgan ba’zi funksiyalarini qayta tikladi, shu bilan birga yangi ma’muriy vazifalar an’anaviy ixtiyoriy yordam madaniyatini qisman rasmiylashtirdi.

Vaqfning ijtimoiy himoya mexanizmi sifatidagi roli. Islom huquqida vaqf instituti mulkni doimiy ravishda diniy yoki ijtimoiy maqsadlar uchun bag‘ishlash O‘rta Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, faqat masjid va madrasalar emas, balki kasalxonalar (bimorxona), kambag‘allarga mo‘ljallangan boshpanalar (ribotlar) va sayohatchilar uylari (karvonsaroylar) ham vaqf mulklari asosida moliyalashtirilgan (McChesney, 1991). Vaqfnomalar vaqf ta’sis hujjatlari ko‘pincha muayyan toifalar: yetimlar, beva ayollar, keksalar va jismoniy ojiz shaxslar uchun maxsus ajratmalarni belgilab qo‘ygan.

Amy Singer (2008) ning islom xayriya institutlari bo‘yicha tadqiqotida ta’kidlanishicha, vaqf tizimi O‘rta Osiyoda, shu jumladan Movarounnahr va Xuroson hududlarida, davlat tomonidan tashkil etilmagan holda keng miqyosli ijtimoiy ta’minot tizimini shakllantirgan. Bu tizimda nogironlarni qo‘llab-quvvatlash bevosita ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, “muhtoj” toifasiga tegishli barcha shaxslar ish qobiliyatini yo‘qotganlar, kasallar, qariyalar vaqf xayriyasidan foydalana olgan. Rossiya imperiyasining Turkistondagi vaqf siyosati dastlab noaniq va qarama-qarshi xarakter kasb etdi. 1873 yilgacha vaqf mulklari imperiya ma’muriyati nazoratidan tashqarida faoliyat yuritgan bo‘lsa, keyinchalik bosqichma-bosqich cheklovlar joriy etila boshlandi (Crews, 2006). 1886 yilgi nizom vaqf mulklarini ro‘yxatdan o‘tkazishni majburiy qildi va ularning boshqaruvini imperiya nazoratiga o‘tkazdi. Bu qaror vaqfning moliyaviy mustaqilligini kamaytirdi, chunki ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida ko‘plab vaqf mulklari imperiya foydasiga musodara qilindi yoki huquqiy noaniqlik tufayli faoliyatini to‘xtatdi.

Powers (1989) Britaniya mustamlaka siyosatini Hindiston va Jazoir misolida tahlil qilib, imperiya ma’muriyatlarining vaqf tizimiga nisbatan yagona strategiya ya’ni uning ijtimoiy ta’sir doirasini toraytirish va moliyaviy mustaqilligini yo‘q qilish dan foydalanganligini ko‘rsatadi. Turkistondagi jarayon ham shu umumiy imperiyalik andozadan tashqari bo‘lmadi. 1917 yilga kelib Turkistondagi vaqf mulklarining katta qismi allaqachon imperiya nazoratiga o‘tgan yoki moddiy jihatdan kuchsizlangan edi.

Sovet davrida vaqfning tugatilishi va uning oqibatlari. 1917 yilgi inqilobdan so‘ng sovet hukumati vaqf mulklarini milliylashtirish siyosatini izchil amalga oshirdi. 1925–1930 yillar oralig‘ida O‘rta Osiyo respublikalarida vaqf mulklari to‘liq davlatga o‘tkazildi (Khalid, 1998). Bu jarayon faqat moddiy mulk masalasi emas edi u an’anaviy ijtimoiy ta’minot tizimining institutsiyal asoslarini butunlay barbod qildi. Vaqf orqali moliyalashtirilgan kasalxonalar, kambag‘allar boshpanalari va boshqa ijtimoiy muassasalar davlat nazoratiga o‘tib, mafkuraviy jihatdan qayta tashkil etildi, ammo norasmiy xayriya va mahalliy g‘amxo‘rlik madaniyati to‘liq yo‘qolmadi.

Jadval 1.

An’anaviy ijtimoiy himoya institutlarining nogiron shaxslarga nisbatan funksional holati: 1865–1917 va 1991 yillar qiyosi

Mezon	Institut	1865–1917 davri	1991 yildan keyin
Huquqiy maqom	Oila	Shariat orqali qisman himoyalangan	Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solingan
Huquqiy maqom	Mahalla	Imperiya	Rasmiy o‘zini o‘zi

		ma'muriyatining quyi bo‘g‘ini	boshqarish organi (1993-yil qonuni)
Huquqiy maqom	Vaqf	Ro‘yxatga olish majburiy, nazorat cheklangan	Rasman tiklanmagan; xayriya shakllari norasmiy
Moliyaviy mustaqillik	Oila	Paxta iqtisodiyoti bosimi ostida zaiflashgan	Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida cheklangan
Moliyaviy mustaqillik	Mahalla	Soliq va migratsiya bosimi ostida qisman kamaygan	Davlat subsidiyasiga qisman bog‘liq
Moliyaviy mustaqillik	Vaqf	Imperiya musodirasi bilan kuchsizlangan	Institutsional asos yo‘q
Ijtimoiy himoya funksiyasi	Oila	Asosiy va birlamchi — davom etgan	Asosiy — davom etmoqda, lekin resurs cheklangan
Ijtimoiy himoya funksiyasi	Mahalla	Norasmiy ravishda saqlanib qolgan	Rasmiy va norasmiy funksiyalar uyg‘unlashgan
Ijtimoiy himoya funksiyasi	Vaqf	Qisman faoliyatini to‘xtatgan	Institutsional jihatdan mavjud emas
Nogironlarga munosabat	Diniy-axloqiy asos	Islomiy nafaqa va rahm-shafqat tamoyillari	Milliy qonunchilik va xalqaro standartlar
Nogironlarga munosabat	Amaliy mexanizm	Oilaviy g‘amxo‘rlik + mahalla yordami + vaqf	Oilaviy g‘amxo‘rlik + mahalla + davlat nafaqalari

Izoh: Jadval mavjud tarixiy adabiyotlar va qonunchilik manbalari asosida muallif tomonidan tuzilgan (Crews, 2006; Luong, 2002; McChesney, 1991; Sahadeo, 2007; Sievers, 2002).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1865-1917 davri va 1991 yildan keyingi davr o‘rtasida institutsional davomiylik eng avvalo oila va mahalla tizimida saqlanib qolgan. Vaqf tizimi esa sovet davri oralig‘ida to‘liq institutsional uzilishga uchragan yagona institutdir. Bu farq zamonaviy ijtimoiy-pedagogik siyosat nuqtai nazaridan muhim: an’anaviy ijtimoiy himoya potensiali oila va mahalla orqali hamon mavjud bo‘lsa-da, vaqfning moliyaviy mexanizmi xayriya va diniy fondlar ko‘rinishida qayta tiklana olmagan holda qolmoqda. Nogironlarga nisbatan munosabatning asosi ham o‘zgargan: diniy-axloqiy majburiyat zamonaviy davr qonunchiligi va xalqaro majburiyatlar bilan to‘ldirilgan, ammo amaliy amalga oshirishda oilaviy va mahalla resurslariga tayanish holati saqlanib qolgan.

Muhokama. Tarixiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyo jamiyatida oila, mahalla va vaqf har biri alohida faoliyat yuritmasdan bir-birini to‘ldiruvchi uch qatlamli ijtimoiy himoya tizimini tashkil etgan. Nogironlarga yordam avvalo oila zimmasiga tushgan; oila imkoniyati cheklangan taqdirda mahalla devori ko‘targan; mahalla yetarli bo‘lmagan hollarda vaqf resurslaridan foydalanilgan. Bu uch qatlamli tuzilma davlat ishtirokisiz samarali ijtimoiy “buffer” vazifasini o‘taganligini Lapidus (2002) va McChesney (1991) ning tadqiqotlari bilvosita tasdiqlaydi.

Rossiya mustamlakachiligi bu tizimni to‘satdan emas, balki bosqichma-bosqich kuchsizlantirdi. Birinchi zarbani vaqf oldi moliyaviy mustaqilligini yo‘qotdi; ikkinchi zarbani oila tuzilmasi oldi paxta iqtisodiyoti va migratsiya uni parchaladi; mahalla esa eng bardoshli

bo‘lib, norasmiy ijtimoiy birlik sifatida saqlanib qoldi. Bu jarayon Crews (2006) va Sahadeo (2007) ning mustamlaka davri O‘rta Osiyo ijtimoiy tarixi bo‘yicha xulosalari bilan to‘liq hamohangdir.

Ikkala tarixiy kesimda 1865-1917 va 1991 yillardan keyingi davrda nogiron shaxslarga g‘amxo‘rlik qilishning asosiy motivatsion negizi diniy-axloqiy burch ekanligi saqlanib qolgan. Bu holat zamonaviy davlat qonunchiligiga asoslangan yondashuvdan tubdan farq qiladi: birinchisida g‘amxo‘rlik axloqiy majburiyat sifatida ichki motivatsiyadan kelib chiqsa, ikkinchisida tashqi huquqiy sanksiyalar orqali ta’minlanadi. Stiker (1999) G‘arb jamiyatlarida ham diniy motivatsiyaning tarixan muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi, biroq zamonaviy huquqiy tizimlar bu motivatsiyani asta-sekin siqib chiqargan. O‘zbek jamiyatida esa ikki asosnin diniy va huquqiy parallel mavjudligi hali ham kuzatiladi, bu esa ijtimoiy himoya tizimining o‘ziga xos madaniy xususiyatini belgilab beradi.

Sovet davrida (1917-1991) vaqf tizimining butunlay tugatilishi an’anaviy ijtimoiy himoya tizimida qaytarilmagan institutsional uzilishni yuzaga keltirdi. 1991 yildan keyin oila va mahalla tizimi ma’lum darajada tiklanish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqfning moliyaviy mexanizmi zamonaviy xayriya tashkilotlari yoki diniy fondlar ko‘rinishida ham hali to‘liq qayta institutsiallashmagan. Luong (2002) post-sovet O‘rta Osiyosidagi institutsional o‘zgarishlarni tahlil qilib, an’anaviy institutlarning rasmiy maqom olishi bilan ularning amaliy faoliyat salohiyati o‘rtasida katta tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Bu tafovut aynan nogironlarga mo‘ljallangan ijtimoiy xizmatlar sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi: mahalla rasmiy vakolatlarga ega, ammo moliyaviy va kadrlar resurslari cheklangan.

Tarixiy tahlildan kelib chiqadigan eng muhim amaliy xulosa shuki, an’anaviy institutlarning ijtimoiy himoya salohiyatini zamonaviy siyosat ularni rasmiylashtirish orqali emas, balki moliyaviy va institutsional jihatdan mustahkamlash orqali oshirishi mumkin. Reimers va Chung (2016) ijtimoiy-pedagogik islohotlarda mahalliy madaniy institutlar bilan hamkorlikni strategik zaruriyat sifatida belgilaydi. O‘zbekiston kontekstida bu tamoyil shuni anglatadi: mahallaning nogiron shaxslarga yordam ko‘rsatish funksiyasi davlat siyosatida tan olinib, tegishli resurslar bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak; vaqf tajribasidan ilhomlanib zamonaviy xayriya mexanizmlari shakllantirishi mumkin; oilaviy g‘amxo‘rlikka tayanadigan siyosat oilalarni ham moddiy, ham psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlaishi zarur.

Xulosa. Ushbu maqolada an’anaviy O‘zbek jamiyatida mahalla, oila va vaqf institutlarining nogiron shaxslarga nisbatan ijtimoiy himoya funksiyasi 1865–1917 va 1991 yillar tarixiy kesimlarida kontseptual jihatdan tahlil qilindi. Tahlil quyidagi besh asosiy xulosaga olib keldi.

Birinchi xulosa. An’anaviy O‘zbek jamiyatida nogiron shaxslarning ijtimoiy himoyasi davlat tizimiga emas, balki oila, mahalla va vaqfdan iborat uch qatlamli an’anaviy institutlar tarmog‘iga tayanib kelgan. Bu tizim diniy-axloqiy majburiyat islomiy nafaqa va rahm-shafqat tamoyillari — asosida norasmiy, ammo amalda samarali faoliyat yuritgan.

Ikkinchi xulosa. Rossiya mustamlakachiligi (1865–1917) bu tizimni to‘g‘ridan to‘g‘ri bekor qilmagan, biroq vaqfning moliyaviy mustaqilligini cheklash, oilaviy tuzilmaga iqtisodiy bosim o‘tkazish va mahallani imperiya ma’muriyatiga integratsiyalash orqali uch qatlamli himoya mexanizmini ketma-ket kuchsizlantirgan.

Uchinchi xulosa. Sovet davrida (1917–1991) vaqf tizimining tugatilishi an’anaviy ijtimoiy himoya tizimida qaytarilmagan institutsional uzilishni yuzaga keltirdi. Oila va mahalla esa norasmiy ijtimoiy birlik sifatida to‘liq yo‘qolmay, sovet tuzumining mafkuraviy bosimiga qaramay saqlanib qoldi.

To‘rtinchi xulosa. 1991 yildan keyin mahallaning rasmiy huquqiy maqom olishi an’anaviy ijtimoiy himoya potensialini qisman tikladi, biroq vaqfning institutsional asosi qayta shakllanmagan holda qoldi. Bu esa zamonaviy ijtimoiy ta’minot tizimida muhim

bo‘shliqni xususan, nogironlarga mo‘ljallangan muassasaviy moliyalash mexanizmining yo‘qligini belgilab qolmoqda.

Beshinchi xulosa. Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik siyosati uchun an’anaviy institutlarning tarixiy tajribasi amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahallaning nogiron shaxslarga yordam ko‘rsatish salohiyatini rasmiy e’tirof etish va resurslar bilan mustahkamlash, vaqf tajribasiga asoslangan zamonaviy xayriya mexanizmlarini shakllantirish hamda oilaviy g‘amxo‘rlikni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish bular kelajakdagi siyosat uchun ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: arxiv manbalari xususan, qozi mahkamasi yozuvlari va vaqfnomalar asosida nogironlarga oid aniq tarixiy holatlarni empirik tarzda o‘rganish; sovet davridagi norasmiy ijtimoiy himoya amaliyotini og‘zaki tarix metodi yordamida qayd etish; hamda 1991 yildan keyingi mahalla faoliyatini nogironlik siyosati bilan bog‘liq holda keng qamrovli sotsiologik tadqiqot asosida baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brower, D. R. (2003). Turkestan and the fate of the Russian Empire. RoutledgeCurzon.
2. Coulson, N. J. (1964). A history of Islamic law. Edinburgh University Press.
3. Crews, R. D. (2006). For prophet and tsar: Islam and empire in Russia and Central Asia. Harvard University Press.
4. Gilson, L. L., & Goldsmith, M. (2000). Methodological rigor in conceptual papers. Journal of Management, 26(6), 1157–1160.
5. Jabareen, Y. (2009). Building a conceptual framework: Philosophy, definitions, and procedure. International Journal of Qualitative Methods, 8(4), 49–62. https://doi.org/10.1177/160940690900800406
6. Kamp, M. (2008). The new woman in Uzbekistan: Islam, modernity, and unveiling under communism. University of Washington Press.
7. Khalid, A. (1998). The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press.
8. Lapidus, I. M. (2002). A history of Islamic societies (2nd ed.). Cambridge University Press.
9. Luong, P. J. (2002). Institutional change and political continuity in post-Soviet Central Asia: Power, perceptions, and pacts. Cambridge University Press.
10. Mahoney, J., & Rueschemeyer, D. (Eds.). (2003). Comparative historical analysis in the social sciences. Cambridge University Press.
11. McChesney, R. D. (1991). Waqf in Central Asia: Four hundred years in the history of a Muslim shrine, 1480–1889. Princeton University Press.
12. Nalivkin, V. P. (1886). Kratkaya istoriya Kokandskogo khanstva. Tipografiya gubernskogo pravleniya.
13. Northrop, D. (2004). Veiled empire: Gender and power in Stalinist Central Asia. Cornell University Press.
14. Powers, D. S. (1989). Orientalism, colonialism, and legal history: The attack on Muslim family endowments in Algeria and India. Comparative Studies in Society and History, 31(3), 535–571.
15. Reimers, F., & Chung, C. K. (Eds.). (2016). Teaching and learning for the twenty-first century. Harvard Education Press.
16. Sahadeo, J. (2007). Russian colonial society in Tashkent, 1865–1923. Indiana University Press.

17. Sievers, E. W. (2002). Uzbekistan's mahalla: From Soviet to absolutist residential community associations. The Journal of International and Comparative Law at Chicago-Kent, 2(1), 91–158.
18. Singer, A. (2008). Charity in Islamic societies. Cambridge University Press.
19. Stiker, H.-J. (1999). A history of disability (W. Sayers, Trans.). University of Michigan Press. (Original work published 1982)
20. Stone, E. (Ed.). (1999). Disability and development: Learning from action and research on disability in the majority world. The Disability Press.
21. Vambery, A. (1864). Travels in Central Asia. John Murray.
22. World Health Organization. (2011). World report on disability. WHO Press. https://www.who.int/disabilities/world_report/2011/en/